

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL
UNIVERSITETI

ORIENTAL UNIVERSITETI

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: BOZOROV OTABEK YO'LCHI O'G'LI

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: RYMKHANOVA AINAGUL RYMBEKOVNA

Karaganda National Research University

falsafa doktori (PhD), dotsent

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	927
Xulosa sanasi	01.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Guvohnoma: MAS № 0000303, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Maxsus pedagogika (logopediya)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70110301
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000303, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70110301 – Special Pedagogy: Speech Therapy
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70110301 – Специальная педагогика (логопедия)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishidagi mezonlarning asosiy qismi muvofiq, 1.4-mezon esa qisman muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida universitetda 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy tuzilma shakllantirilgani aniqlandi. O'quv jarayonini magistratura bo'limi muvofiqlashtiradi, ta'lim dasturining mazmuni va akademik ta'minoti esa "Uzluksiz ta'lim" kafedrası tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur tarkibiy tuzilmalar o'quv ishlari bo'yicha prorektor orqali universitet rahbariyatiga bo'ysunadi va ta'lim jarayonining uzluksiz boshqarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash mexanizmlarini daliliy asosda takomillashtirish zarurligi sababli 1.4-mezon qisman muvofiq deb topildi. Logopediya sohasidagi mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam tahlil qilish va olingan natijalarni ta'lim dasturini takomillashtirish jarayoniga tizimli ravishda integratsiya etish tavsiya etiladi. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari Davlat ta'lim standartlari, kasbiy standartlar hamda Milliy malakalar ramkasining 7-darajasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Kutilayotgan o'quv natijalari ta'lim tashkilotlarida faoliyat

yurituvchi logoped mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, nazariy tayyorgarlikni nutq buzilishlarini tashxislash, korreksiyalash va profilaktika qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar bilan uzviy uyg'unlashtiradi. Ta'lim dasturining mazmuni magistratura bosqichida ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyat uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar tizimli ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Ularni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari hamda magistrantlarning ishtiroki ta'minlangan. Ta'lim dasturi, o'quv rejalari va sillabuslar Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari, kasbiy standartlar hamda malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, magistratura bosqichida logopedik amaliyot va ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Nutq buzilishlarini tashxislash, korreksiyalash va ilmiy tahlil qilish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni real amaliy muhitda shakllantirish ta'lim dasturining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash jarayonlarining shaffofligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'minlangan bo'lib, o'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturi doirasida qabul jarayoni, qabul parametrlari, magistrantlar harakati hamda ularni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Qabul mezonlari, fanlar majmuasi, baholash mezonlari, natijalarni e'lon qilish tartibi hamda apellyatsiya mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori, PF-81-son Farmoni hamda "Oriental" universiteti Kengashining 2025-yil 30-oktabrdagi 2-sonli majlis bayoni asosida belgilangan bo'lib, qabul jarayonining shaffofligi va xolisligi ta'minlangan. Magistrantlarni akademik, ilmiy va kasbiy

faoliyatida qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan hamda talabalar faoliyatini tashkil etish ta'lim dasturining maqsadlari va amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi hamda boshqaruv, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar salohiyati shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi bo'yicha 4 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgan bo'lib, ularning 3 nafari asosiy shtatda faoliyat yuritadi va asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi 75 foizni tashkil etib, belgilangan me'yor talabiga muvofiqdir. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati bilan bir qatorda logopediya sohasidagi amaliy tajribaga ega bo'lishi magistrantlarda kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida kadrlar tarkibini izchil kengaytirish va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish tavsiya etiladi. Umuman olganda, inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan tashqi baholash natijalari, taqdim etilgan hujjatlar tahlili hamda universitetga tashrif davomida olib borilgan o'rganishlar asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv xonalari, laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, raqamli ta'lim muhiti va infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. O'quv binolari, auditoriyalar va laboratoriyalar talabalar kontingenti hamda mashg'ulot turlariga mos ravishda jihozlangan bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Logopediya yo'nalishi uchun nutq buzilishlarini tashxislash va korreksiyalash vositalari, maxsus didaktik materiallar hamda individual mashg'ulotlarni tashkil etishga mo'ljallangan xonalarning mavjudligi magistrantlarning amaliy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash mexanizmi (1.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Professor-o'qituvchilar tarkibini izchil kengaytirish maqsadga muvofiq (4 nafardan 3 nafari asosiy shtatda).
- ✓ Nutq tashxisi va tuzatish vositalari hamda maxsus didaktik materiallar bazasini boyitish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Logopediya sohasidagi ehtiyoj tahlili va ilmiy tendensiyalarni o'rganish mexanizmini dalillar bilan asoslash.
- ✓ Professor-o'qituvchilar tarkibini kengaytirish va asosiy shtat ulushini oshirish.
- ✓ Nutq tashxisi va tuzatish vositalari, individual mashg'ulot xonalari bazasini boyitish.
- ✓ Maxsus ta'lim muassasalari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Oriental universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, magistrantlar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun magistratura bo'limi hamda "Uzluksiz ta'lim" kafedrasini tarkibiy tuzilma sifatida faoliyat yuritishi, ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari Davlat ta'lim standartlari, kasbiy standartlar hamda Milliy malakalar ramkasining 7-darajasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, qabul tartiblari universitet Kengashining 2025-yil 30-oktabrdagi 2-sonli majlis bayoni bilan rasmiylashtirilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirishda 4 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritadi, ularning 3 nafari asosiy shtatda ishlaydi va asosiy shtatdagi

professor-o'qituvchilar ulushi 75 foizni tashkil etadi. Universitetda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, logopedik amaliyot uchun zarur jihozlar, axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, magistrantlar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi, tashkiliy-boshqaruv yo'nalishida esa mehnat bozori ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini aniqlash mexanizmlariga oid 1.4-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish va ularning ta'lim dasturiga integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 70110301 – Maxsus pedagogika (logopediya) magistratura ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

